

**SAMARQAND VILOYATIDA CHAKANA VA
ULGURJI SAVDO
TOVAR AYLANMASI**






CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023-yil 1-mart holatiga viloyat bo'yicha chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **14 800** tani tashkil etib, 2022-yil 1-martga nisbatan **2 373** taga oshgan (o'sish sur'ati **119,1** %). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **42** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **14 758** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTLar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



O'sish sur'ati

Tarkibiy qism



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **3 421,0** mlrd. so'm ni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **95,0** % ni tashkil etdi.

Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **654,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **81,8** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **2 766,5** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **98,8** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **365,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **106,1** %) tashkil etdi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI



Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste‘mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko‘p bo‘lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.


	Jami mlrd. so‘m	2022-yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, %	Yirik korxonalar mlrd. so‘m	2022-yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, %	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so‘m	2022-yil yanvar – fevral oylariga nisbatan, %
Samarqand viloyati	3 421,0	95,0	654,6	81,8	2 766,5	98,8
Samarqand sh.	1 273,1	92,0	554,82	77,8	718,3	107,2
Kattaqo‘rg‘on sh. tumanlar:	196,5	89,3	0,254	110,2	196,3	89,3
Oqdaryo	91,6	99,5	0,897	86,5	90,7	99,6
Bulung‘ur	145,6	99,8	5,096	122,4	140,5	99,2
Jomboy	127,5	99,0	8,376	7,1 m.	119,2	93,4
Ishtixon	120,3	101,0	1,138	120,2	119,2	100,8
Kattaqo‘rg‘on	140,6	99,1	1,475	94,3	139,1	99,1
Qo‘shrabot	42,6	88,0	0,800	85,5	41,8	88,1
Narpay	130,6	97,1	1,293	87,0	129,3	97,2
Payariq	135,2	100,8	1,262	85,0	133,9	101,0
Pastdarg‘om	170,2	101,1	11,138	161,6	159,1	98,5
Paxtachi	91,1	99,7	1,172	91,2	89,9	99,8
Samarqand	232,7	89,6	57,187	99,3	175,5	86,8
Nurobod	49,8	84,7	0,863	98,3	49,0	84,5
Urgut	355,3	100,4	6,674	111,7	348,6	100,2
Toyloq	118,3	99,6	2,119	185,2	116,1	98,7

2023-yilning yanvar-fevral oylarida 2022-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan Samarqand shahrida (**92,0 %**) Ishtixon (**101,0 %**), Pastdarg‘om (**101,1 %**), Urgut (**100,4 %**) va Payariq (**100,8 %**) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o‘sish sur‘atlari qayd etildi.



YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI


Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi,
yanvar-fevral, mlrd. so'm



So'nggi **6 yillikda** chakan savdo Tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021-yilning mos davriga nisbatan **111,6 %** ni yoki **3 006,2** mlrd. so'mni tashkil qildi.


Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida, foiz

2022-yil, 2023-yil yanvar-fevral oylari



2023-yilning yanvar-fevral oylarida o'sish sur'ati 95,0 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi, foiz



- | | | |
|-----------------|---------------------|-------------|
| ■ Samarqand sh. | ■ Kattaqo'rg'on sh. | ■ Oqdaryo |
| ■ Bulung'ur | ■ Jomboy | ■ Ishtixon |
| ■ Kattaqo'rg'on | ■ Qo'shrabot | ■ Narpay |
| ■ Payariq | ■ Paxtachi | ■ Samarqand |
| ■ Pastdarg'om | ■ Nurobod | ■ Urgut |
| ■ Toyloq | | |

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Samarqand shahri **37,2 %** bilan **1 273,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, Qo'shrabot tumani **1,2 %** bilan **42,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyatning chakana savdo tovar aylanmasida Pastdarg'om (**101,1%**), Ishtixon (**101,0 %**), Payariq (**100,8 %**) va Urgut (**100,4 %**) tumanlarida yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **2 766,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **1,2 %** ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **80,9 %** ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar, foiz




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar, foiz



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **81,8 %** ni va **654,6** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **19,1 %** ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, foiz



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Kattaqo'rg'on shahri (**99,9 %**) va Payariq (**99,1 %**), Kattaqo'rg'on (**99,0 %**), Narpay (**99,0 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **19,1 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahri (**43,6 %**), Samarqand (**24,6 %**), Jomboy (**6,6 %**), Pastdarg'om (**6,5 %**) tumanlarida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foiz
Samarqand viloyati	839,5	93,0
Samarqand sh.	2 243,3	90,3
Kattaqo'rg'on sh.	2 117,5	87,7
tumanlar:		
Oqdaryo	548,2	97,3
Bulung'ur	745,3	97,9
Jomboy	698,4	96,6
Ishtixon	450,1	98,7
Kattaqo'rg'on	493,2	97,1
Qo'shrabot	308,8	86,2
Narpay	590,2	95,3
Payariq	512,9	98,5
Pastdarg'om	458,6	99,1
Paxtachi	611,1	98,3
Samarqand	880,4	87,8
Nurobod	315,9	82,9
Urgut	659,1	98,0
Toyloq	554,9	97,1

2023-yilning yanvar-fevral holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **839,5** ming. so'mni (2022-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **93,0** % ni) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Samarqand shahri (**2 243,3** ming. so'm), Kattaqo'rg'on (**2 117,5** ming. so'm) va Samarqand (**880,4** ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI




Viloyat bo'yicha 2023-yilning yanvar-fevral oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **365,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **106,1** % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12-bozor va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **110,1** mlrd. so'mni (**78,4** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **255,1** mlrd. so'mni (**95,1** %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm




Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, foiz



UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, foiz



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.



UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022-yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, %	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022-yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, %	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022-yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, %
Samarqand viloyati	365,2	106,1	110,1	135,6	255,1	97,0
Samarqand sh.	20,7	97,3	17,0	97,0	3,7	98,5
Kattaqo'rg'on sh.	49,2	67,7	15,1	3,6 m.	34,1	49,9
tumanlar:						
Oqdaryo	23,7	113,7	1,1	41,3	22,6	124,5
Bulung'ur	33,3	117,1	8,6	123,4	24,8	115,1
Jomboy	31,9	135,8	17,5	198,1	14,4	98,3
Ishtixon	29,6	127,5	10,3	5,5 m.	19,3	90,4
Kattaqo'rg'on	29,2	103,3	6,5	86,7	22,7	109,4
Qo'shrabot	12,2	73,7	1,9	89,0	10,4	71,5
Narpay	4,7	116,8	3,1	87,9	1,6	3,3 m.
Payariq	31,3	108,9	7,3	167,9	24,0	98,4
Pastdarg'om	19,7	2,1 m.	0,6	19,9	19,0	3,1 m.
Paxtachi	16,8	119,2	5,1	156,2	11,6	108,0
Samarqand	7,5	112,9	1,0	153,5	6,5	108,5
Nurobod	8,7	55,1	1,4	24,4	7,4	72,2
Urgut	23,9	139,3	10,2	192,9	13,6	115,2
Toyloq	22,8	165,0	3,4	93,7	19,4	190,9

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;











– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **110,1** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**43,6** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mlrd. so'm
	Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari	43,6
	Non va non mahsulotlari	9,5
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	13,9
	Tovuq go'shti	9,0
	Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)	10,6
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...)	3,8
	Tuxum	5,4
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak	4,9
	Ziravorlar	4,8
	Tuzlamalar	4,2
	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)	0,4
	Nooziq-ovqat tovarlari	0,0

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023-yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **255,1** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **210,9** mlrd. so‘m, qo‘y va echkilar **32,3** mlrd. so‘mni, otlar **10,5** mlrd. so‘mni, parrandalar **1,4** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mrld. so‘m
	2 yoshdan kata bo‘lgan qoramollar	120,4
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	59,3
	1 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	31,2
	Qo‘ylar	25,6
	Otlar	10,5
	Echkilar	6,7
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	0,4
	Tovuqlar	1,0
	Quyونlar	0,0
	Qushlar	0,0

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023-yil 1-mart holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **4 138** tani tashkil etib, 2022-yil 1-mart holatiga nisbatan **555** taga oshgan va o'sish sur'ati **115,5 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **8** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **4 130** tani tashkil qildi.


2023-yilning yanvar-fevral oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **100,4** mlrd. so'mni (**88,9 %** ni) tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **11,1 %** ga kamaydi. Bunda savdo aylanmasining **69,6 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, %	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, %	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, %
Samarqand viloyati	100,4	88,9	30,5	77,5	69,9	95,0
Samarqand sh.	51,7	87,0	9,5	60,0	42,2	96,7
Kattaqo'rg'on sh.	2,4	95,4	-	-	2,4	95,4
tumanlar:						
Oqdaryo	0,5	93,9	-	-	0,5	93,9
Bulung'ur	2,7	107,9	1,5	126,0	1,2	91,0
Jomboy	2,0	93,4	-	-	2,0	93,4
Ishtixon	0,7	94,2	-	-	0,7	94,2
Kattaqo'rg'on	1,7	93,8	-	-	1,7	93,8
Qo'shrabot	0,9	86,7	-	-	0,9	86,7
Narpay	1,0	89,1	-	-	1,0	89,1
Payariq	1,2	92,5	-	-	1,2	92,5
Pastdarg'om	7,0	92,8	2,8	102,2	4,2	87,4
Paxtachi	0,8	93,1	-	-	0,8	93,1
Samarqand	3,6	91,3	-	-	3,6	94,5
Nurobod	0,7	89,6	-	-	0,7	89,6
Urgut	3,5	95,4	-	-	3,5	95,9
Toyloq	20,0	86,9	16,7	85,8	3,3	93,2

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023-yil 1-mart holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **257,6** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tkan yilning mos davriga nisbatan **91,4** % ni tashkil qildi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **38,0** mlrd. so'm (o'sish sur'ati **61,0** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi **219,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **95,9** %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foiz



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi




Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, foiz
Samarqand viloyati	257,6	91,4
Samarqand sh.	163,9	85,6
Kattaqo'rg'on sh.	0,811	102,6
tumanlar:		
Oqdaryo	0,840	103,6
Bulung'ur	0,854	100,3
Jomboy	0,412	103,6
Ishtixon	0,553	102,1
Kattaqo'rg'on	0,346	103,6
Qo'shrabot	0,060	100,8
Narpay	0,691	101,4
Payariq	0,086	103,6
Pastdarg'om	0,045	103,6
Paxtachi	0,428	100,5
Samarqand	13,668	103,6
Nurobod	0,276	103,6
Urgut	0,009	103,6
Toyloq	74,579	103,6


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Samarqand shahri (**163,9** mlrd. so'm), Toyloq (**74,6** mlrd. so'm) va Samarqand (**13,7** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘m



Viloyat bo‘yicha 2023-yilning yanvar-fevral oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1 413,0** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **19,4 %** ga o‘ydi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **667,3** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **70,7 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **47,2 %** ni tashkil qildi.


ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK KORXONALAR



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Samarqand shahrida (**3,9 b.**) va Qoshrabot (**2,9 b.**), Samarqand (**157,2 %**), Jomboy (**136,9 b.**), Pastdarg'om (**3,4 b.**) tumanlarida kuzatildi.

2023-yil 1-mart holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **3 064** tani tashkil etib, 2022-yil 1-fevral holatiga nisbatan **536** taga ko'paygan, o'sish sur'ati **121,2 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **27** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **3 037** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, %	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, %	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022-yil yanvar – fevral oylariga nisbatan, %
Samarqand viloyati	1 413,0	119,4	745,7	3,1 m.	667,3	70,7
Samarqand sh.	1 033,6	134,2	589,7	3,9 m.	443,9	71,8
Kattaqo'rg'on sh.	26,9	83,4	0,6	45,1	26,3	85,1
tumanlar:						
Oqdaryo	9,4	77,8	-	-	9,4	77,8
Bulung'ur	57,3	128,0	51,1	141,9	6,2	70,9
Jomboy	17,0	64,6	4,2	136,9 m.	12,8	48,8
Ishtixon	7,2	76,0	-	-	7,2	76,0
Kattaqo'rg'on	12,7	75,2	-	-	12,7	76,3
Qo'shrabot	1,9	87,3	0,033	2,9 m.	1,8	86,2
Narpay	4,5	83,0	0,078	152,9	4,4	82,4
Payariq	5,3	77,3	-	-	5,3	77,3
Pastdarg'om	88,1	150,9	60,6	3,4 m.	27,5	68,1
Paxtachi	2,3	73,9	0,127	20,2	2,2	87,3
Samarqand	84,3	85,5	33,3	157,2	51,1	65,9
Nurobod	5,9	68,5	0,036	92,3	5,9	68,4
Urgut	43,4	82,1	-	-	43,4	82,1
Toyloq	13,2	37,5	5,998	66,6	7,2	27,5



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 66-235-65-80**